

“TASDIQLANGAN”

**“Olmaliq KMK” AJ
Kuzatuv kengashining
2022-yil 12 iyuldagi
17-sonli Bayonnomasi**

**“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ
Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi
kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risidagi
Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-maydagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmoni o'n beshinchi bandiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Kuzatuv kengashining **Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasini** tashkil etish va uning faoliyatini tartibga soladi.

1. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Qo'mita deb yuritiladi) Kombinat ijro apparatidagi barcha bo'linmalar, tizimdagi korxonalar rahbar xodimlari, shu jumladan Boshqaruv a'zolari (keyingi o'rinlarda — Kombinat xodimlari deb yuritiladi) tomonidan "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati", "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyati rahbariyatining hamda xodimlarining Odob-axloq Kodeksi", "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyati va uning tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida Nizom", "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyati va uning tizimidagi korxonalarda kontragentlarni tekshirishga

oid Yo'riqnoma", "Olmaliq KMK" AJ ijro apparati va uning tizimidagi korxonalarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma", "Olmaliq KMK" AJ va uning tizimidagi korxonalar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish va xizmatdagi odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Reglament" qoida va talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish maqsadida tuziladi.

2. Qo'mita faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi boshqa qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlariga, "Olmaliq KMK" AJning Ustavi, "Olmaliq KMK" AJning Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom, ushbu Nizom hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Qo'mita, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Kuzatuv kengashining vakolatlari muddatiga Kuzatuv kengashining qarori bilan Kengash a'zolari orasidan Qo'mita raisi va a'zolarini qo'shganda besh kishidan kam bo'lmagan toq sonli tarkibda tuziladi.

Qo'mita faoliyatiga Kuzatuv kengashining raisi (keyingi o'rinlarda — Kengash) shaxsan rahbarlik qiladi, uning tarkibiga Kengash a'zolaridan yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tog'-kon ishlari, geologiya, metallurgiya hamda Qo'mita zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan

boshqa sohalar bo'yicha salmoqli tajribaga ega, Kengash a'zolari hamda Kombinat xodimlari o'rtasida yuksak obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan iborat tarkibda shakllantiriladi.

4. Qo'mita a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi Kuzatuv kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

5. Qo'mita faoliyati Kuzatuv kengashining qarori bilan muddatidan ilgari to'xtatilishi mumkin.

2-bob. Qo'mitaning vakolatlari

6. Qo'mita o'z vakolatlari doirasida:

“Olmaliq KMK” aksiyadorlik jamiyati va uning tizimida korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimini joriy etishga oid ichki normativ hujjatlar ishlab chiqilishini, zaruratga ko'ra Kuzatuv kengashi yoxud Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanishi, joriy etilishi va ijrosini nazorat qiladi;

Qo'mita faoliyatiga doir masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashining qarorlari loyihalarini ishlab chiqishni tashkil qiladi;

Kombinatning rahbar xodimlari tomonidan “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlar qoidalariga, shuningdek umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etilishiga oid masalalarni ko'rib chiqadi va ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xulosalar tayyorlaydi, qarorlar qabul qiladi, qoidalarga rioya etilishi ustidan muntazam monitoringni amalga oshiradi;

Kombinat xodimlari o'rtasida korrupsiyaviy qoidabuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, yo'l xaritalarini, dasturlar loyihalari boshqa sohaga oid hujjatlarni tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga taqdim etadi;

Kombinatning boshqaruv a'zolari, tizimdagi korxonalar rahbar xodimlari, shuningdek ijro apparatidagi bo'linmalar rahbarlari tomonidan umumiy qabul qilingan axloq normalarini, “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlar qoidalarini buzadigan, Kombinat xodimlari obro'sini to'kadigan va Kombinatning ishchanlik obro'si va nufuziga putur yetkazadigan xatti-harakatlar sodir etilganligi bilan bog'liq ishlarni, murojaatlarni o'z majlislarida ko'rib chiqadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning Kombinat boshqaruvi a'zolari, tizimdagi korxonalar rahbar xodimlari, shuningdek ijro apparatidagi bo'linmalar rahbar xodimlarning xatti-harakatlari ustidan qilgan murojaatlarini ko'rib chiqadi;

Kombinat xodimlarining qonun hujjatlarida hamda ichki normativ hujjatlarda nazarda tutilgan o'z vakolatlarini amalga oshirishi chog'ida davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan Kombinat xodimlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishlari haqidagi arizalarini ko'rib chiqadi;

Kombinat xodimlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish hamda Kombinat xodimlari faoliyatining boshqa kafolatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplayens-nazorat tizimini tartibga solishga yo'naltirilgan ichki normativ hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Kombinat boshqaruv a'zolari, tizimdagi korxonalar rahbar xodimlari, shuningdek ijro apparatidagi bo'linmalar rahbarlari tomonidan "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarga rioya etilishi holatini o'rganib chiqib, uning natijalari haqida Kuzatuv kengashiga hisobot taqdim qiladi;

Kombinat boshqaruv a'zolari va tizimdagi korxonalar rahbarlarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, ishdan bo'shatish, rotatsiya qilish, xizmat tekshiruv natijasiga ko'ra aniqlangan hujjatlar to'plamini huquqni muhofaza qilish organlariga qonuniy chora ko'rish uchun yuborish to'g'risidagi materiallarni Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun tayyorlaydi;

Prokurorning taqdimnomasi bo'yicha Boshqaruv a'zolarini jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralarini qo'llashga rozilik berish to'g'risidagi materiallarni Kuzatuv kengashi a'zolariga ko'rib chiqish uchun tayyorlaydi;

Kuzatuv kengashining majlisida o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan Qo'mita xulosasini taqdim etadi;

o'zining ko'rib chiqishi uchun kiritilgan masalalarni hal etish uchun Qo'mita majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni taklif etadi;

Kombinat boshqaruvi a'zolari, tizimdagi korxonalar rahbar xodimlari, shuningdek ijro apparatidagi bo'linmalar rahbarlari tomonidan "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarda belgilangan qoida va talablar buzilgan taqdirda, bunday xodimlar to'g'risidagi zarur axborotni so'rab oladi;

Qo'mita, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hamda Kuzatuv kengashining qarorlariga, shuningdek ushbu Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi "Komplayens-nazorat xizmati" Qo'mitaning ishchi organi hisoblanadi.

Komplayens-nazorat xizmati Qo'mitaning faoliyatini samarali tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi ish rejalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish, Kombinatning boshqaruv organlari, tizimdagi korxonalar va bo'linmalarining rahbarlari tomonidan Kuzatuv

kengashi va Qo‘mita tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini tashkil etishni ta‘minlaydi.

8. Qo‘mita, o‘z faoliyatini amalga oshirishda vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa organlar, mansabdor shaxslar va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

9. Qo‘mita masalalarni Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv Kengashining topshirig‘iga binoan o‘z vakolatlari doirasida ko‘rib chiqadi.

3-bob. Qo‘mita ishini tashkil etish

10. Qo‘mita majlislari zaruratga qarab o‘tkaziladi.

Qo‘mita majlislari ochiq tarzda o‘tkaziladi. Zarur hollarda Qo‘mita yopiq majlis o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

11. Qo‘mita majlisini Qo‘mita raisi, u yo‘qligida esa, uning topshirig‘iga asosan Qo‘mita raisining o‘rinbosari yoki Qo‘mita a‘zolaridan biri olib boradi. Qo‘mita majlisida bayonnoma yuritiladi, uni majlisda ishtirok etgan Qo‘mita a‘zolari imzolaydilar.

12. Qo‘mita majlislari, agar ularda Qo‘mita a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, vakolatlidir.

13. Qo‘mitaning kelgusi majlisi to‘g‘risida uning raisi Qo‘mita a‘zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida uch sutka avval xabar qiladi, shuningdek majlisning boshqa ishtirokchilarini ham oldindan xabardor etadi.

14. Qo‘mita ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlarni Qo‘mitaning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qiladi. Qo‘mita qarorini uning majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

15. Qo‘mita raisi:

Qo‘mita ishini tashkil etadi;

Qo‘mita majlislarini chaqiradi va o‘tkazadi;

Qo‘mita a‘zolariga topshiriqlar beradi;

vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, boshqa organlar, mansabdor shaxslar va jamoatchilik vakillari bilan munosabatlarda Qo‘mita nomidan ish ko‘radi;

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi hamda Kuzatuv kengashining majlislarida Qo‘mita faoliyati to‘g‘risidagi axborot bilan so‘zga chiqadi;

har yili Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi hamda Kuzatuv kengashiga Qo‘mita faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

16. Qo‘mita a‘zosi Qo‘mita majlisida shaxsan hozir bo‘lishi va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan va sidqidildan bajarishi shart.

Qo‘mita a‘zosi Qo‘mita majlisida hozir bo‘lish imkoni bo‘lmaganda Qo‘mita raisini oldindan xabardor etishi shart.

17. Qo‘mita a‘zosi:

Qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqiladigan barcha masalalar bo‘yicha ovoz berishga;

Qo‘mitaning ko‘rib chiqishi uchun majlis kun tartibiga masalalar va takliflar kiritishga;

qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek ularning amalga oshirilishini tashkil etish hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

ko‘rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma’lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishib chiqishga;

Qo‘mita qaroriga rozi bo‘lmagan taqdirda o‘z nuqtayi nazarini bayon etishga haqli.

Qo‘mita a‘zosi ushbu Nizomga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlaridagi talab va qoidalarning buzilishiga oid masalalarni ko‘rib chiqish tartibi

18. Qo‘mita Kombinat boshqaruvi a‘zolari, tizimdagi korxonalar rahbar xodimlari, shuningdek ijro apparatidagi bo‘linmalar rahbarlari tomonidan “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarning qoida va talablari buzilishi bilan bog‘liq masalalarni:

Kuzatuv kengashining topshirig‘iga binoan yuborilgan hujjatlarni;

Kombinat xodimlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Komplayens-nazorat tuzilmasining murojaatlariga binoan;

o‘z tashabbusi bilan ko‘rib chiqadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

19. O‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilayotgan Kombinat xodimi o‘zining huquqi, sha’ni, qadri va qimmatini, ishchanlik obro‘sigacha dahl qiladigan asossiz ariza (tuhmat yoxud haqorat qilish) taqdim etilgan taqdirda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishga haqli.

20. Qo‘mita majlisiga, haqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilayotgan Kombinat xodimlari, zarur bo‘lgan hollarda esa, arizachilar va boshqa shaxslar taklif etiladi. Qo‘mita majlisining vaqti va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi arizani yoxud shikoyatni, Kuzatuv kengashining topshirig‘ini ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

21. Qo‘mita majlisida:

kun tartibidagi masala qatnashuvchilarga o‘qib eshittiriladi;

Kuzatuv kengashining topshirig‘i, Kombinat xodimlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Komplayens-nazorat tuzilmasining murojaati mazmuni yoxud o‘z tashabbusi bilan kiritilgan xabar o‘qib eshittiriladi;

“Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ

hujjatlarining qoida va talablari buzilganligi to'g'risida o'ziga nisbatan shikoyat yoki ariza tushgan Kombinat xodimlari, zarur bo'lgan hollarda esa, arizachi eshitiladi.

22. Kombinat xodimlari Qo'mitaga o'z huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatining himoyasi uchun murojaat, taklif va shikoyat shaklida materiallar hamda boshqa shakldagi axborotni taqdim etishga haqli.

23. Kuzatuv kengashining topshirig'i asosida murojaat hujjatlari bilan tanishib chiqish yakunlari bo'yicha Qo'mita, Kombinat xodimlarining xatti-harakatlarida "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Xizmatdagi odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlar qoida va talablari buzilganligi faktining mavjudligi tasdiqlangan holatda, ushbu xodim (xodimlarga) nisbatan aniq ta'sir ko'rsatish choralari ko'rsatgan holda yoxud Kombinat xodimlarining xatti-harakatlarida qoida va talablar buzilishi faktining mavjud emasligini belgilaydi.

24. Kombinat xodimlari tomonidan "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Xizmatdagi odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarning qoida va talablari buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, Qo'mita:

Kombinat xodimlariga nisbatan ogohlantirish tarzidagi ta'sir ko'rsatish chorasini qo'llash to'g'risida;

Kuzatuv kengashiga Kombinat boshqaruv a'zolari va tizimdagi korxonalar rahbarlarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, ishdan bo'shatish, rotatsiya qilish, xizmat tekshiruv natijasiga ko'ra aniqlangan hujjatlar to'plamini huquqni muhofaza qilish organlariga qonuniy chora ko'rish uchun yuborish to'g'risida taklif kiritish vakolatiga ega.

25. Kombinat boshqaruv a'zolari va tizimdagi korxonalar rahbarlarining xatti-harakatlarida "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Xizmatdagi odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarning qoida va talablari buzilganligi faktining mavjud emasligi aniqlangan taqdirda, bunday murojaat bo'yicha xodimga nisbatan jazo choralari qo'llanmaydi.

26. Qo'mita qabul qilingan qaror haqida arizachiga, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan Kombinat xodimlariga, Kuzatuv kengashiga hamda Komplayens-nazorat xizmatiga yozma ravishda ma'lum qiladi.

Qo'mitaning tegishli qaror loyihasi Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqishi uchun kiritilganda, unga qisqa tushuntirish xati va boshqa zarur materiallar to'plami ham ilova qilinadi.

27. Qo'mita qarori ustidan Kuzatuv kengashiga shikoyat qilish mumkin. Kuzatuv kengashi Qo'mita qarorini bekor qilishga hamda o'z vakolati doirasida boshqa qaror qabul qilishga haqli.

28. Kombinat xodimlari tomonidan Qo'mitaning majlisi jarayonida "Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Xizmatdagi odob-

axloq qoidalari, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlar qoida va talablarining buzilishiga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, majlisda raislik qiluvchi Reglamentga muvofiq choralar ko‘radi, shuningdek Qo‘mitaga Kombinat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlar qoida va talablarining buzilganligi masalasini ko‘rib chiqishni taklif etishga haqli.

29. Murojaat uning tashabbuskori tomonidan Qo‘mita qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

30. Taraflarning yarashuvi, yetkazilgan zarar miqdorining to‘liq qoplanganligi, qonun hujjatlari qoidalarining buzilishi holatlari bartaraf etilganligi, “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Odob-axloq qoidalari, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, Kontragentlarni tekshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarning qoida va talablari ijrosi ta‘minlangan holatlarda, Qo‘mita qaroriga asosan xodim o‘ziga nisbatan ta’sir choralari qo‘llanilishidan ozod etilishi mumkin.